

OFERTA
«SOVG‘ALAR BAZMI»

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Qoidalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga oladi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi hamda 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalarga ko‘ra, aksiya shartlari, g‘oliblarni aniqlash tartibi, sovrinlarni topshirish, shuningdek, kompaniya tomonidan o‘tkaziladigan aksiyaning boshqa muhim shartlari bayon etiladi. Aksiya tashkilotchisi: **MChJ “HUA FA”**.

1.2. Aksiyaning tashkilotchisi: **MChJ “HUA FA”**, STIR: 311398400, manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Rakatboshi MFY, O‘rikzor ko‘chasi, 2-tor ko‘cha, 55-uy.

1.3. Aksiya nomi: «**SOVG‘ALAR BAZMI**» (keyingi o‘rinlarda – “Aksiya”).

1.4. Aksiya o‘tkaziladigan hudud – O‘zbekiston Respublikasi hududi, ushbu Qoidalarga muvofiq.

1.5. Aksiya muddati – 2025-yil 11-avgustdan 2025-yil 11-sentyabrgacha.

Aksiya to‘xtatilgan yoki muddatidan oldin tugatilgan taqdirda, tashkilotchi bu haqda ommaga xabar berishi shart.

2. AKSIYADA ISHTIROK ETADIGAN MAHSULOTLAR

2.1. Aksiyada HONOR kompaniyasining barcha smartfonlari va planshetlari ishtirok etadi.

3. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

3.1. Aksiyada O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi, 18 yoshga to‘lgan, to‘liq muomala layoqatiga ega va O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Aksiyada tashkilotchi xodimlari va vakillari, ularning oila a‘zolari ishtirok eta olmaydi. Shuningdek, aksiyani o‘tkazish uchun tashkilotchi tomonidan jalb qilingan pudrat tashkilotlari xodimlari va vakillari (agar bunday tashkilotlar jalb qilingan bo‘lsa), hamda aksiyani tashkil etishda yoki o‘tkazishda ishtirok etadigan boshqa yuridik shaxslar vakillari va ularning oila a‘zolari ishtirok eta olmaydi.

Agar g‘oliblarni aniqlash jarayonida (ushbu Qoidalarning 6-bo‘limiga muvofiq) ushbu bandda ko‘rsatilgan shaxs g‘olib sifatida aniqlansa, tashkilotchi ushbu Qoidalarga muvofiq yangi tanlov o‘tkazish huquqini saqlab qoladi.

3.3. Aksiyada ishtirok etish ushbu Qoidalarning to‘liq qabul qilinganligini anglatadi.

3.4. Aksiyada ishtirok etishni va sovrin yutishni xohlagan shaxs ushbu Qoidalarga muvofiq belgilangan muddatlarda va hududlarda barcha talab qilingan harakatlarni bajarishi shart.

3.5. Agar ishtirokchi ushbu Qoidalarga amal qilmasa, tashkilotchi tomonidan sovrin yoki mukofot berilmaydi. Sovrin tashkilotchi yoki uning vakillari tomonidan qaytarib olinmaydi yoki almashtirilmaydi.

3.6. Sovrinni olish uchun ishtirokchi aksiya davomida ushbu Qoidalarga muvofiq barcha zarur harakatlarni bajarishi shart. Shartlarga amal qilmaslik aksiyada ishtirok etish va sovrin olishdan voz kechish sifatida qabul qilinadi.

3.7. Tashkilotchi ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiya ishtirokchisi bilan tuzilgan shartnoma asosida sovrinni topshirishi, shuningdek, belgilangan muddat, tartib va joyda boshqa zarur harakatlarni bajarishi shart.

3.8. Tashkilotchi bilan Aksiya ishtirokchisi o'rtasidagi shartnoma ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarga muvofiq barcha belgilangan talablarni izchil bajarish orqali tuziladi.

4. ISHTIROK ETISH TARTIBI

Aksiyada ishtirok etish uchun:

4.1. HONOR mahsulotlarini — smartfon yoki planshet xarid qilish.

4.2. Aksiya amal qilish muddati davomida mahsulot qutisida ko'rsatilgan noyob seriya raqamini **Telegram-bot** @HonorStudentFundbot – <https://t.me/HonorStudentfund> manziliga yuborish. Seriya raqamini yuborgan shaxs avtomatik tarzda aksiyada ishtirokchi bo'ladi va ushbu Qoidalarni so'zsiz qabul qiladi.

4.3. Seriya raqami yuborilgach, ishtirokchi Telegram-botdan xabar oladi.

4.4. Yutug' haqida ma'lumot faqat aksiyada g'olib bo'lgan shaxslarga aksiya yakunlangach Telegram orqali yuboriladi.

4.5. Agar ishtirokchi sovrinlardan birini yutib olsa, tashkilotchi uni sovrinni olish tartibiga muvofiq (qarang: 7-bo'lim) topshiradi.

4.6. Aksiya davomida xarid qilingan smartfon yoki planshet aksiya muddati ichida faollashtirilgan bo'lishi shart. Aksiya yakuniga qadar faollashtirilmagan qurilmalar qatnashuvchilar ro'yxatidan chiqariladi.

5. SOVRIN JAMG'ARMASI

5.1. Aksiya sovrin jamg'armasi Tashkilotchining mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

Sovrinlar ro'yxati:	Soni	Sana
O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun kontrakt to'lovini 100% 1 yillik uchun to'lab berish (tasodifan tanlab olinadi)	3	11-Avgustdan 11-Sentabrgacha ro'yxatdan o'tganlar orasidan
Jami so'vrinlar soni:	3	

5.2. Shuningdek, HONOR smartfon mahsulotini xarid qilish jarayonida sovg'alar ham taqdim etiladi. Sovg'alar soni cheklangan bo'lib, texnika do'koni egalari qaysi sovg'ani berishni o'zlari belgilaydilar. Sovg'alar soni va turi farq qilishi mumkin, shuningdek, aksiya muddati ham texnika do'koni egasiga bog'liq bo'ladi. Quyidagi do'konlar sovg'ali aksiya doirasiga kiradi: Diskont, CA Store, Ucell, Beeline, Asaxiy, Mediapark, E-one.

5.2. Aksiyadagi sovg'alar nomi va soni.

Sovg'alar nomi	Soni	Sana
HONOR Giftbox	3840	11-Avgustdan 14-Sentabrgacha

HONOR Backpack	11250	11-Avgustdan 14-Sentabrgacha
HONOR Choice Headphones	2500	11-Avgustdan 14-Sentabrgacha
HONOR Choynak	6574	11-Avgustdan 14-Sentabrgacha

Sovrinlar Tashkilotchining ofislari va vakolatxonalarida Aksiya ishtirokchilariga beriladi.

6. O‘YIN O‘TKAZISH MEXANIKASI VA G‘OLIBNI TANLASH TARTIBI

- 6.1. Sovrinlarni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar (keyingi o‘rinlarda – “G‘oliblar”) 2025-yil 11-avgustdan 11-sentyabrgacha ro‘yxatdan o‘tgan seriya raqamlar orasidan tasodifiy tanlash yo‘li bilan aniqlanadi. Tanlov maxsus kompyuter dasturi yordamida amalga oshiriladi.
- 6.2. Har bir sovrinli o‘yin doirasida seriya raqami jo‘natgan ishtirokchilar orasidan alohida G‘olib aniqlanadi. Oldingi bosqichlarda ro‘yxatdan o‘tgan seriya raqamlari keyingi bosqichlarda qatnashmaydi.
- 6.3. G‘oliblarni aniqlash jarayoni Tashkilotchining xavfsizlik va moliyaviy nazorat xizmati vakillari hamda texnik platforma vakillaridan iborat komissiya ishtirokida o‘tkaziladi.
- 6.4. Har bir o‘yin natijalariga ko‘ra g‘oliblarni aniqlashda komissiya a‘zolari bayonnomaga imzo qo‘yadilar. O‘yin o‘tkazilgach, bir kun ichida g‘oliblar haqidagi ma’lumotlar **honoruzbekistan** Instagram va Telegram sahifalarida e’lon qilinadi.
- 6.5. Tashkilotchi seriya raqamining Telegram-botga yuborilganligini tasdiqlashni so‘rashga haqli.
- 6.6. G‘oliblar 2025-yil 17-sentyabr kuni **Random.org** saytida tasodifiy tanlash yo‘li bilan aniqlanadi va **honoruzbekistan** Telegram sahifasida (<https://t.me/HonorUzbekistan>) jonli efirda namoyish etiladi. G‘oliblar soni – 3 nafar bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi hududidagi akkreditatsiyadan o‘tgan oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasidan tasodifiy tanlanadi. Ushbu aksiyada ishtirok etish mutlaqo bepul bo‘lib, HONOR vakillari hech qanday to‘lov talab qilmaydi.

7. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA SHARTLARI

- 7.1. Sovrinlar Toshkent shahridagi HONOR kompaniyasining Mirobod tumani, Turkiston ko‘chasi, 12A manzilidagi ofisida yoki kompaniya guruhining hududiy vakolatxonalarini orqali topshiriladi.
- 7.2. Ishtirokchi sovrinni olish uchun kontrakt hujjatini va g‘olib seriya raqami ko‘rsatilgan telefon qutisini taqdim etishi shart.
- 7.3. Ushbu Qoidalarga muvofiq, g‘olib ishtirokchi sovrinni olish uchun quyidagi hujjatlar to‘plamini tayyorlashi kerak: pasport nusxasi, PINFL (JShShIR) va shaxsiy daromad solig‘ini to‘lash bo‘yicha ariza.
- 7.4. Yutuq bo‘yicha soliq kontrakt to‘lovi summasi hisobga olingan holda hisoblanadi va to‘lanadi.
- 7.5. Tashkilotchining sovrinni topshirish majburiyati sovrin ishtirokchiga berilib, ishtirokchi imzo qo‘ygan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.
- 7.6. Sovrinlar g‘olib aniqlangandan keyin bir hafta ichida topshiriladi.

8. MAXSUS SHARTLAR

- 8.1. G‘olib yutib olgan sovrinni boshqa tovar, ish yoki xizmatlarga almashtirish huquqiga ega emas.
 - 8.2. Sovrinni olish natijasida yuzaga keladigan shaxsiy daromad solig‘ini to‘lash majburiyati O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 178-moddasi 8-bandiga muvofiq G‘olib zimmasida bo‘ladi. Ushbu majburiyat agent, Tashkilotchi yoki aksiyani o‘tkazish uchun jalb qilingan boshqa yuridik shaxs orqali bajarilishi mumkin.
 - 8.3. G‘olib uchinchi shaxslarga o‘z huquq va majburiyatlarini berolmaydi.
 - 8.4. Aksiyada ishtirok etish ushbu Qoidalarni to‘liq va so‘zsiz qabul qilishni anglatadi.
 - 8.5. Tashkilotchi ishtirokchining aksiyada qatnashish jarayonida qilgan xarajatlari yoki ko‘rgan yo‘qotishlari uchun javobgar emas.
 - 8.6. Tashkilotchi Qoidalarni aksiyaning rasmiy veb-saytida joylashtirgandan so‘ng, ishtirokchining ularni o‘z vaqtida va to‘liq o‘qib chiqmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.
 - 8.7. Zarurat tug‘ilganda, Tashkilotchi ishtirokchilardan davlat organlariga taqdim etish uchun zarur ma‘lumotlarni so‘rashga haqli.
 - 8.8. Tashkilotchi telefon aloqa sifati, operatorlar ishi, internetga ulanish, provayderlar xizmati, ishtirokchi uskunalari va dasturiy ta‘minoti bilan bog‘liq holatlar, shuningdek, Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablardan kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar emas.
 - 8.9. Tashkilotchi yoki uning vakolat bergan shaxslari aksiyada ishtirok etish vaqtida taqdim etilgan shaxsiy ma‘lumotlarni faqat aksiya maqsadlarida qayta ishlash va g‘oliblar bilan bog‘lanish, hamda sovrinni topshirilganligini tasdiqlash uchun ishlatishga haqli.
 - 8.10. Shaxsiy ma‘lumotlar faqat Tashkilotchi yoki aksiyani tashkil etish va o‘tkazish bilan bevosita bog‘liq shaxslar tomonidan ishlatiladi hamda uchinchi shaxslarga berilmaydi.
 - 8.11. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining o‘z shaxsiy ma‘lumotlarini aksiya davomida va undan keyin uzatish va qayta ishlashga hamda Tashkilotchidan SMS, reklama yoki boshqa xabarlarni olishga to‘liq roziligini bildiradi.
 - 8.12. Ishtirokchilar aksiyada qatnashish va sovrinni olish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni (mobil aloqa, internet, transport va h.k.) o‘z hisobidan qoplaydilar.
 - 8.13. Ishtirokchilar Tashkilotchining zarurat tug‘ilganda ularning ism-familiyasi, otasining ismi, fotosurati, boshqa foto, video va audio materiallarini yoki boshqa ma‘lumotlarini ishlatishiga rozilik beradilar.
 - 8.14. Tashkilotchi ushbu Qoidalarga rioya qilmagan har qanday ishtirokchini aksiyadan chiqarib yuborish huquqiga ega.
 - 8.15. Aksiya bilan bog‘liq barcha nizolar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida hal etiladi.
 - 8.16. Tashkilotchi ushbu Qoidalarga istalgan vaqtda, ular kuchga kirishidan kamida uch ish kuni oldin, <https://www.honor.com/uz/> veb-saytida e‘lon qilish orqali o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga haqli. Tashkilotchi sovrinlar ro‘yxatini o‘zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega.
 - 8.17. Aksiya muddati boshlanishidan oldin yoki tugaganidan keyin yuborilgan, shuningdek, qayta yuborilgan seriya raqamlari qabul qilinmaydi. Tashkilotchi bunday raqamlarni qabul qilmaslik yoki bekor qilish haqida xabar berishga haqli, ammo bunga majbur emas.
-

9. AKSIYA ISHTIROKCHILARIGA MA'LUMOT BERISH VA AKSIYANI TO'XTATISH TARTIBI

9.1. Ishtirokchilarni aksiya shartlari va tartibi haqida xabardor qilish HONOR kompaniyasining savdo nuqtalarida tarqatiladigan maxsus axborot materiallari va reklama vositalari orqali amalga oshiriladi.

9.2. Aksiya haqida to'liq ma'lumot va qoidalar Tashkilotchining rasmiy sayti <https://www.honor.com/uz/> yoki +998 78 147 16 77 telefon orqali beriladi.

9.3. Agar aksiya muddatidan oldin tugatilsa yoki uzaytirilsa, tegishli ma'lumot rasmiy veb-saytda e'lon qilinadi.